



UDK:324

Abrorxon OCHILOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi
E-mail: abrorochilov86@mail.ru.

PhD Sh.Norova taqrizi asosida

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI VA MA'NAVIY-AXLOQIY MEZONLARNING SHAKLLANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston jamiyatida raqamli texnologiyalar ta'sirida yuzaga kelayotgan fuqarolik faolligi, davlat boshqaruvi samaradorligi hamda kibermakon sharoitida ma'naviy-axloqiy mezonlarning shakllanishi tahlil qilinadi. Muallif zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida shakllanayotgan ijtimoiy ong, demokratik ishtirok va madaniy identitetning transformatsiyasini falsafiy-nazariy jihatdan yoritishga harakat qilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya, fuqarolik jamiyati, kibermakon, axloqiy mezonlar, axborot siyosati, O'zbekiston, identitet, raqamli tengsizlik.

FORMATION OF CIVIL SOCIETY AND SPIRITUAL AND MORAL CRITERIA IN UZBEKISTAN IN THE PROCESS OF DIGITAL TRANSFORMATION

Annotation

This article analyzes civil activity, the effectiveness of public administration, and the formation of moral and ethical criteria in cyberspace under the influence of digital technologies in Uzbek society. The author attempted to illuminate the transformation of social consciousness, democratic participation, and cultural identity, formed on the basis of modern information and communication technologies, from a philosophical and theoretical point of view.

Key words: Digital transformation, civil society, cyberspace, ethical criteria, information policy, Uzbekistan, identity, digital inequality.

ФОРМИРОВАНИЕ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА И ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКИХ КРИТЕРИЕВ В УЗБЕКИСТАНЕ В ПРОЦЕССЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Аннотация

В данной статье анализируется гражданская активность, эффективность государственного управления и формирование духовно-нравственных критериев в киберпространстве под влиянием цифровых технологий в обществе Узбекистана. Автор попытался осветить с философско-теоретической точки зрения трансформацию общественного сознания, демократического участия и культурного самосознания, сформированного на основе современных информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова: Цифровая трансформация, гражданское общество, киберпространство, этические критерии, информационная политика, Узбекистан, идентичность, цифровое неравенство.

Kirish. Zamonaviy dunyo jamiyatlarida raqamli texnologiyalar nafaqat iqtisodiy va ma'muriy sohalarni, balki siyosiy madaniyat, fuqarolik jamiyati va ma'naviy qadriyatlar tizimini ham tubdan o'zgartirmoqda. O'zbekistonda raqamlashtirish jarayonlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasidagi islohotlar esa davlat boshqaruvi ochiqligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini kuchaytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Biroq bu jarayonlar murakkab falsafiy va axloqiy muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. Ayniqsa, kibermakon orqali tarqalayotgan axborotlar fonida milliy ong, axloqiy mezonlar va ijtimoiy birdamlik kabi qadriyatlar qayta shakllanmoqda [Yusupova E. 2022].

Bugungi globalashuv davrida insoniyat hayotining barcha jabhalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining chuqur kirib borishi raqamli transformatsiya jarayonini tezlashtirmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham ushbu jarayon davlat va jamiyat boshqaruvini modernizatsiya qilish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim omiliga aylanmoqda. Biroq raqamli taraqqiyot shiddati nafaqat texnologik, balki ma'naviy-axloqiy

mezonlarning qayta shakllanishini ham talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, fuqarolik jamiyatining zamonaviy ko'rinishi raqamli muhitda barqaror axloqiy qadriyatlarga asoslanishi lozim.

Raqamli transformatsiya sharoitida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalasi dolzarbdir. Chunki internet va ijtimoiy tarmoqlar nafaqat bilim manbai, balki shaxs ongiga turli xil ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadigan kuchli axborot oqimidir. Shu bois:

yoshlar ongida axborot madaniyati va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;

milliy qadriyatlarni umuminsoniy g'oyalar bilan uyg'unlashtirish;

kiberxavfsizlik va media savodxonlikni ta'minlash zarur.

Shuningdek, raqamli etikani shakllantirish – ya'ni virtual muhitda halollik, bag'rikenglik, insoniylik kabi qadriyatlarga amal qilish, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim mezonlardan biridir.

Raqamli transformatsiya jarayonida quyidagi muammolar yuzaga chiqmoqda:

feyk axborotlar va axborot manipulyatsiyasi;
yoshlar ongiga salbiy ta'sir etuvchi kontentlar;

internet odobi va axloqiy me'yorlarga amal qilmaslik.
Ularni bartaraf etish uchun quyidagi choralar muhim:
qonunchilik bazasini mustahkamlash;
axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha zamonaviy tizimlarni yaratish;

ta'lim muassasalarida media savodxonlik va axborot madaniyatini o'rgatish.

Raqamli transformatsiya O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va davlat boshqaruvida shaffoflikni kuchaytirishning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq bu jarayon faqat texnologik yangilanish emas, balki ma'naviy-axloqiy mezonlarni mustahkamlashni ham taqozo etadi. Virtual muhitda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini uyg'unlashtirish, yoshlar ongida axborot madaniyatini shakllantirish, kiberxavfsizlikni ta'minlash fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishi uchun zaruriy shartlardandir. Demak, raqamli transformatsiya sharoitida fuqarolik jamiyati va ma'naviy-axloqiy mezonlar uyg'unligi O'zbekistonning kelgusi taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

1. Raqamli transformatsiya va fuqarolik jamiyati

O'zbekiston jamiyatida raqamli texnologiyalar fuqarolik faolligini oshirishda muhim rol o'ynayapti. Eleonora Yusupova tadqiqotlarida bu holat ijobiy baholansa-da, raqamli tengsizlik muammosi, ya'ni axborotga erkin va teng kirish imkoniyatining mavjud emasligi, haqiqiy demokratik ishtirokni cheklashi mumkinligi ta'kidlanadi. Dilmira Tuychieva ayollar faolligini misol qilib, raqamli imkoniyatlar orqali ijtimoiy ishtirokni kengaytirishning yangi yo'llarini ko'rsatadi.

2. Ma'naviy-axloqiy mezonlar va kibermadaniyat

Kibermakon – jamiyatning yangi kommunikatsion platformasi sifatida, milliy ma'naviyatni shakllantirishda ham salmoqli ta'sirga ega. Raqamli kommunikatsiyalar natijasida an'anaviy ijtimoiy aloqa formalarining o'mini tezkor va qisqa axborot almashinuv shakllari egallamoqda. Bu esa jamiyatda axloqiy filtrlash, axborotning ishonchiligi va shaxsiy daxlsizlik masalalariga e'tibor qaratilishini taqozo etadi. D. Kamalova bu jarayonda raqamli texnologiyalarning madaniy merosni asrashdagi rolini ko'rsatadi, ammo ularning ong va identitetga ta'siri yetarlicha ochildimagan.

3. Axborot siyosati va demokratik ishtirok muammolari

O'zbekiston axborot siyosati jadal raqamlashtirilayotgan bir vaqtda, ijtimoiy ishtirok shakllari ko'paymoqda. Ammo V. Nagayev va A. Terzyan kabi tadqiqotchilar nazarida, davlat va jamiyat o'rtasidagi tenglik hali ham zaif. Raqamli texnologiyalar yordamida axborot nazorati kuchaymoqda, bu esa ba'zida demokratik islohotlarga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, N. Borisov siyosiy ishtirokning yuzaki modernizatsiyadan nariga o'tmasligini ta'kidlaydi.[Borisov N. 2021]

Raqamli transformatsiya O'zbekiston ijtimoiy hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Bu jarayon nafaqat texnologik yangilanishlarni, balki ijtimoiy ong, madaniy qadriyatlar va axloqiy mezonlarning qayta shakllanishini ham taqozo etmoqda. Ayniqsa, kibermakonning jadal kengayishi, global raqamli madaniyatning ta'siri va axborot oqimining kuchayishi jamiyatda axloqiy me'yorlar va fuqarolik mas'uliyati masalalarini yangicha tarzda ko'rib chiqishni zarur qiladi.

Bugungi kunda yoshlar asosiy axborot manbai sifatida ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanmoqda. Bu esa ularning axborotga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantirish, shaxsiy daxlsizlik va ma'naviy immunitetni kuchaytirish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Raqamli makon ma'lumotlar bilan birga ma'naviy tahdidlarni ham olib kirmoqda — yolg'on yangiliklar, ekstremistik kontent, shaxsga qarshi tahqirli harakatlar kabi holatlar aynan shu sohada ko'proq kuzatiladi.

Bunga qarshi kurashishda, raqamli axloqiy tarbiya, kibermadaniyat, va ma'naviy filtrlash mexanizmlarining takomillashtirilishi nihoyatda muhimdir.

Milliy qadriyatlar zamonaviy texnologik voqelik bilan muvozanatda bo'lishi uchun innovatsion yondashuv talab qilinmoqda. O'zbekistonda bu borada olib borilayotgan amaliy ishlar qatorida ta'lim muassasalarida raqamli savodxonlik darslarining joriy etilishi, o'qituvchilar va talabalar uchun onlayn xavfsizlik bo'yicha seminarlarning tashkil etilishi, hamda axborot xavfsizligiga oid milliy strategiyalar ishlab chiqilishi misol bo'la oladi. Bu orqali raqamli muhitda mustahkam ma'naviy-axloqiy asoslar bilan harakat qiluvchi, ongli fuqaroni shakllantirish mumkin bo'lmoqda.

Raqamlashtirish siyosatining boshqa bir muhim jihati bu davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va fuqarolik institutlarining zamonaviy texnologiyalar orqali samarali faoliyat yuritishidir. Elektron hukumat tizimining joriy etilishi, onlayn davlat xizmatlari, raqamli arxivlar va ochiq ma'lumotlar portallari orqali fuqarolar davlat institutlariga yaqinlashmoqda. Biroq bu tizimlar samarasini oshirish uchun aholining barcha qatlamlarini teng imkoniyatlar bilan ta'minlash, raqamli tafovut muammosini kamaytirish va texnologik savodxonlikni oshirish zarur bo'lib qolmoqda.

Ma'naviy-axloqiy mezonlarning raqamli muhitda shakllanishida OAV va blogosferaning ham roli katta. Axborotni tezkor yetkazish, ijtimoiy muammolarni ko'tarish, jamoatchilik fikrini shakllantirishda raqamli platformalar yetakchi kuchga aylangan. Shu bilan birga, bu vositalar orqali axloqiy me'yorlar, milliy madaniyat va tarbiya masalalarini keng targ'ib qilish imkoniyati ham kuchaymoqda. Davlatning ushbu sohaga oid siyosati, jamiyatda mas'uliyatli va madaniyatli kontent iste'molini targ'ib qilishga qaratilgan qadamlar bilan uyg'unlashib borayotgan bo'lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayoni faqat texnologik rivojlanish emas, balki jamiyatning madaniy, axloqiy va fuqarolik qiyofasini yangilash vositasiga aylanmoqda. Bu esa texnologiyalar va qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, raqamli ong va ma'naviy immunitetni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Shu yo'lda olib borilayotgan siyosat va amaliy tadbirlar raqamli O'zbekistonni ma'naviy barkamol jamiyat sari yetaklovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiyaning madaniy-axloqiy jihatlarini O'zbekiston jamiyatining yangi ijtimoiy mexanizmlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon nafaqat davlat boshqaruvi va iqtisodiyotni raqamlashtirishni, balki jamiyatda umumiy axloqiy qadriyatlar, siyosiy madaniyat, va fuqarolik ongining qayta shakllanishini ham o'z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar zamonaviy hayotning barcha jabhalarini o'zida mujassamlashtirgan holda, ularning ijtimoiy, siyosiy va madaniy ta'siri kengaymoqda.[Tuychieva D.2024]

Raqamli davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yangicha shaklga kirib bormoqda. Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi va ularning fuqarolar bilan o'zaro aloqalarini soddalashtirishi fuqarolik jamiyatining faol ishtirokini ta'minlaydi. Biroq, bu o'zgarishlar jamiyatdagi tengsizliklarni yanada chuqurlashtirishi mumkin, chunki hamma fuqarolar bir xil raqamli resurslarga va imkoniyatlarga ega emas. Shu sababli, raqamli tafovut masalalari, ya'ni raqamli infratuzilma va resurslarga nisbatan tengsizliklar hali ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda.

Ushbu holatga qarshi kurashishda davlatning raqamli siyosati va ma'naviy-axloqiy ta'limi o'rni muhimdir. Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, ijtimoiy axborot tarmoqlari orqali axloqiy tarbiyani oshirish va shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ko'proq ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida raqamli savodxonlikni

o'shish, ularning onlayn muhitdagi xatti-harakatlarini boshqarish va o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv, nafaqat raqamli texnologiyalarni qanday ishlatishni o'rgatadi, balki yoshlarni axloqiy va ijtimoiy ongga ega bo'lishga yo'naltiradi [Terzyan A. –2023].

Shu bilan birga, O'zbekistonning raqamli transformatsiyasi global miqyosda ham ta'sir ko'rsatmoqda. Global axborot tarmoqlari va transmilliy raqamli platformalar O'zbekistonda siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qilmoqda. Ushbu jarayonlar ichida davlatning xalqaro raqamli infratuzilma bilan integratsiyasi va axborot xavfsizligi masalalari alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston, o'z raqamli siyosatini ishlab chiqishda xalqaro standartlarga moslashishga harakat qilmoqda, bu esa uning global raqamli jamiyatga integratsiyasini ta'minlashga yordam beradi.

Ma'naviy-axloqiy me'yorlarning shakllanishi uchun O'zbekistonning milliy madaniyatiga va tarixiga asoslangan raqamli platformalar yaratish zarur. O'zbekiston o'z madaniy merosini saqlash va dunyo jamoatchiligiga tanitish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishni davom ettirishi lozim. Bunda raqamli rekonstruktsiya, virtual eksponatlar, onlayn ta'lim resurslari va interaktiv muzeylar orqali milliy tarix va madaniyatni targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, raqamli transformatsiyaning ijtimoiy-psixologik ta'siri ham muhim omil hisoblanadi. Raqamli muhitda ijtimoiy tarmoqlarning roli oshgan sari, ma'lumotlarga nisbatan qayta ishlash va tanqidiy yondashuvni shakllantirish ehtiyoji kuchaymoqda. Aksariyat holatlarda, yolg'on yangiliklar va manipulyatsiyalarga qarshi kurashishda jamiyatda ma'naviy-axloqiy ta'limning ahamiyati katta. Shu maqsadlarda, axborot texnologiyalarining salbiy ta'sirini kamaytirish va foydalanuvchilarni ongli va mas'uliyatli raqamli madaniyatga yo'naltirish bo'yicha keng qamrovli tashabbuslar amalga oshirilmoqda [Bakoev M.T. va boshqalar].

Xulosa. O'zbekistonda raqamli transformatsiya siyosiy, madaniy va axloqiy jihatdan murakkab jarayon bo'lib, u nafaqat davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, balki jamiyatning ongli raqamli madaniyatga moslashuvini ham taqozo etadi. Fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, axborotga teng kirishni ta'minlash va kibermakon orqali milliy axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb vazifadir. Bu borada raqamli texnologiyalar faqat vosita bo'lib, muhim natijalar esa ularning qanday ishlatilishiga bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. Yusupova E. 2022 – Raqamli texnologiyalar va fuqarolik ishtiroki (ilmiy maqola)
2. Kamalova D. 2020 – Madaniy merosni raqamlashtirish va milliy o'zlik
3. Tuychieva D. 2024 – Ayollar faolligi va raqamli transformatsiya
4. Nagayev V. 2018 – Axborot siyosati va elektron demokratiya
5. Asqarov Z. – O'zbekiston davlatchiligi va raqamli infratuzilma
6. Borisov N. 2021 – Siyosiy transformatsiya va raqamli nazorat
7. Terzyan A. – 2023 Pandemiya davrida raqamli siyosat
8. Bakoev M.T. va boshqalar – Raqamli islohotlar va Barqaror Taraqqiyot
9. Thommandru A., Maratovich F. – Korrupsiyaga qarshi raqamli kurash